



SYNTHESIS OF EASTERN AND WESTERN SOURCES: THE PHILOSOPHICAL ROOTS OF TAGORE'S THOUGHT

Javohir Izomovich Nuridinov

PhD Candidate

Department of Philosophy, Tashkent State University of Economics

E-mail: nriddinov.javohir@gmail.com

Toshkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sadhana, Vedanta, Upanishads, Visva-Bharati, Maya, Supreme Truth, Monism, Hedonism, Theism.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: Rabindranath Tagore (1861–1941) was a figure who played a significant role in the cultural, social, and philosophical life of India in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. He was one of the main figures of the Bengali Renaissance, a symbol of national pride, an introducer of Eastern philosophy to the West, and a leading figure in the harmony of Indian classical and modern thought. An analysis of Tagore's life, his creative path, and the sources of his formation serve as a necessary basis for a deeper understanding of his philosophical views.

SHARQ VA G'ARB MANBALARI SINTEZI: TAGOR TAFAKKURINING FALSAFIY ILDIZLARI

Javohir Izomovich Nuridinov

TDIU "Falsafa" kafedrası tayanch doktoranti (PhD)

E-mail: nriddinov.javohir@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sadhana, vedanta, upanishadlar, visva - bharati, maya, oliy haqiqat, monizm, gedonizm, teizm.

Annotatsiya: Rabindranat Tagor (1861–1941) XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Hindistonning madaniy, ijtimoiy va falsafiy hayotida muhim rol o'ynagan shaxsdir. U bengal uyg'onishining asosiy arboblardan biri, milliy g'urur timsoli, Sharq falsafasining G'arbg'a tanituvchisi, hind

mumtoz va zamonaviy tafakkurining o'zaro uyg'unligida yetakchi ijodkordir. Tagorning hayoti, uning ijodiy yo'li va shakllanish manbalarini tahlil qilish, uning falsafiy qarashlarini chuqur anglash uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

СИНТЕЗ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ИСТОЧНИКОВ: ФИЛОСОФСКИЕ КОРНИ МЫШЛЕНИЯ ТАГОРА

Джавохир Изомович Нуридинов

Соискатель степени PhD, кафедра философии

Ташкентский государственный экономический университет

E-mail: nriddinov.javohir@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Садхана, Веданта, Упанишады, Вишва-Бхарати, Майя, Высшая Истина, Монизм, Гедонизм, Теизм.

Аннотация: Рабиндранат Тагор (1861–1941) — деятель, сыгравший значительную роль в культурной, общественной и философской жизни Индии второй половины XIX — начала XX века. Он является одной из ключевых фигур Бенгальского Возрождения, символом национальной гордости, познакомителем Запада с восточной философией и ведущей фигурой в интеграции классической и современной индийской мысли. Анализ жизни Тагора, его творческого пути, истоков его формирования служит необходимой основой для глубокого понимания его философских взглядов.

KIRISH. Tagor Kalkuttada tug'ilgan, zamonasining eng ilg'or madaniy, siyosiy va diniy markazlaridan biri bo'lgan shahar muhitida voyaga yetgan. Uning otasi Debendronatx Tagor — Brahmo Samaj harakatining yirik arbobi, diniy islohotchi va mutafakkir bo'lib, yosh Rabindranatning shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Brahmo Samaj — XIX asr Hindistonidagi eng yirik diniy-falsafiy harakatlardan biri bo'lib, u hinduizmdagi ko'p xudolik, butparastlik va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqib, Veda falsafasining tozaligini tiklashni maqsad qilgan edi [1:45]. Tagor ushbu muhitda ruhiy va falsafiy izlanishga yo'naltirilgan, din va axloq, ong va ongdan tashqari haqiqat, inson va jamiyat, G'arb va Sharq o'rtasidagi murakkab dialektikani bolaligidan sezgan holda voyaga yetdi.

Tagorning oilasi o'z davrining ilimli insonlari edi: bu yerda diniy ibodatlar bilan birga teatr, musiqa, adabiyot va san'at ham yashardi. Tagor bolaligidan shoir, bastakor, rassom, faylasuf va mutafakkirlar o'rtasida tarbiya topgan. Ayniqsa, otasining sarguzashtli sayohatlari va uzoq vaqt

davomida Himalay tog'larida meditatsiya bilan shug'ullanganligi, o'g'li Rabindranatda diniy va ruhiy izlanishga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otgan. U o'zining avtobiografik asarlarida bu davrni "ichki uyg'onish" sifatida ta'riflaydi va bu holat uning butun hayoti davomida shakllangan falsafiy yo'nalishini belgilab berdi [2:22].

Bengal uyg'onishi — XIX asr Hindistonida sodir bo'lgan intellektual va madaniy harakat bo'lib, u G'arbiy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish bilan birga Sharq ma'naviyati va an'analarini qayta ko'rib chiqish, isloh qilish va jonlantirishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Bu harakat vakillari — Ram Mohan Roy, Isvar Chandra Vidyasagar, Debendronatx Tagor va keyinchalik Rabindranat Tagor kabi shaxslardir. Tagor aynan shu ruhda shakllangan bo'lib, u G'arb falsafasi va san'atini yuqori baholagan holda, Sharq ma'naviy qadriyatlarini asrashga intilgan. Tagorning yoshligidayoq ingliz adabiyoti, nemis romantizmi, yunon falsafasi bilan tanish bo'lganligi, keyinchalik uning falsafiy fikrlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi[3:18]. Tagorning dunyoqarashi upanishadlarning monistik (advaita) g'oyalariga asoslanadi, bu yerda olam va inson o'rtasida birlik mavjud deb hisoblanadi. Uning "Gitanjali" asaridagi ilohiy va insoniy o'zaro bog'liqlik haqidagi she'rlar bu falsafani yaqqol aks ettiradi. Vedantadagi "Brahman" tushunchasi Tagorning ilohiyotni tabiat va inson ruhiyati bilan uyg'unlashtirishga intilishida muhim rol o'ynaydi. Uning "Vishva-Bharati" universiteti g'oyasi Sharqning holistik ta'lim tizimi va "gurukul" an'anasidan ilhomlangan.

ASOSIY QISM. Uning falsafiy qarashlarida individual tajriba bilan jamoaviy ong, ilohiylik bilan insonparvarlik, ruhiyat bilan ijtimoiylik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik doimiy ravishda ko'zga tashlanadi. Bu holatni Tagor asarlarida uchraydigan ruhiy uyg'onish, tabiiy go'zallik, axloqiy uyg'unlik, inson qalbining kosmik qonuniyat bilan bog'liqligi kabi tushunchalar orqali kuzatish mumkin. Ayniqsa, uning fikricha, inson o'zining "ichki men"ini anglab, uni ilohiy haqiqat bilan uyg'unlashtirishi orqali chinakam ozodlikka erishadi. Bunday tafakkurda Sharq an'anasining Vedantik ildizlari bilan birga, Kant, Emerson va Tolstoy kabi G'arb faylasuflarining individualistik falsafiy motivlari uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.[4:55].

Tagorning shaxsiy hayoti — bu nafaqat biografik faktlar to'plami, balki ijtimoiy-falsafiy jarayonlarning aksidir. Uning hayotiy tajribasi, shaxsiy izlanishlari va ijodiy faoliyati orqali Hindiston mustamlakachilik davrining madaniy, siyosiy va ruhiy portretini ko'rish mumkin. Shu sababli, Tagorning shakllanishi shunchaki shaxsiy evolyutsiya emas, balki butun bir xalqning va umuman Sharq tafakkurining zamonaviylikka moslashuvi, o'zligini anglash, madaniy qarshilik va ma'naviy uyg'onish jarayonlarining timsoli sifatida baholanishi zarur. Rabindranat Tagorning falsafiy tafakkuri Sharq va G'arb falsafiy an'anasining murakkab, ammo uyg'unlashgan sintezidir. Uning ijodida qadimiy hind falsafasi – xususan, Vedanta, Upanishadlar, Buddizm,

shuningdek, sufiylik va Baul an'anasi bilan G'arbning idealistik falsafasi – Kant, Emerson, Tolstoy va Yeats kabi mutafakkirlarning g'oyalari o'zaro boyitilgan holda aks etadi. Bu sintez, bir tomondan, Sharqning ruhiylik va ilohiylikka yo'naltirilgan tafakkuri bilan, ikkinchi tomondan esa G'arbning individualizm, aql va tanqidiy tafakkurga asoslangan fikrlari o'rtasida falsafiy muvozanat yaratadi. Tagor Uilyam Vordsvort, Samuel Teylor Kolidj va boshqa romantik shoirlarning tabiat va inson ruhiyati haqidagi g'oyalaridan ilhomlangan. Uning tabiatga muhabbat va uni ilohiyot bilan bog'lash uslubi romantizmning aniq ta'siridir. G'arb idealizmining, xususan, Kantning sub'ektiv idealizmi va Gegelning mutlaq ruh tushunchasi Tagorning falsafiy yondashuvida to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmasa-da, universal birlik, ruhiy evolyutsiya va san'at orqali ilohiy haqiqatni ifodalash g'oyalarida o'z aksini topgan. Tagor bu tushunchalarni Upanishadlarning monistik falsafasi bilan sintez qilib, o'ziga xos universal insonparvarlik falsafasini yaratdi. Uning she'riyatida va ta'lim tizimida Gegelning mutlaq ruhining izlari seziladi, lekin ular Sharqning ruhiy an'analari bilan boyitilgan. Ralf Ualdo Emerson va Genri Devid Toroning transsendentalistik g'oyalari Tagorning insonning ichki erkinligi va tabiat bilan uyg'unligi haqidagi tasavvurlariga yaqin edi. U bu g'oyalarni Sharqning monistik falsafasi bilan uyg'unlashtirdi.

Tagor Vedantik tafakkurni o'zining ruhiy markazi sifatida qabul qilgan. Unga ko'ra, insonning ichki mohiyati – atman, ya'ni o'zlik, barcha mavjudotlar bilan ilohiy birlikda mavjuddir. Ushbu birlik tushunchasi Brahman-atman prinsipiga asoslanib, inson va kosmos, ilohiy haqiqat va mavjudot orasidagi o'zaro bog'liqlikni anglatadi [5:112]. Ayniqsa, Upanishadlarda aks etgan “Tat Tvam Asi” – “Sen O'zsan” degan g'oya Tagorning ruhiy-falsafiy tizimida markaziy qarash sifatida talqin qilinadi. U insonni nafaqat jismoniy mavjudot, balki ilohiy ongga ega bo'lgan mavjudot sifatida ko'radi va uni o'zini anglashga chorlaydi. “Tat Tvam Asi” so'zma-so'z “Sen O'zsan” deb tarjima qilinadi, bu yerda “Tat” (O'sha) mutlaq haqiqat yoki Brahmanni, “Tvam” (Sen) esa shaxsiy ruh yoki Atmanni anglatadi. “Asi” (O'zsan) esa ikkalasining birligini ta'kidlaydi. Chandogya Upanishadda bu ibora ota Uddalaka Aruni o'g'li Shvetaketu bilan suhbatda ishlatadi. U o'g'liga olamning asl mohiyatini tushuntirish uchun misollar keltiradi, masalan, tuzning suvda erishi yoki loydan yasalgan idishning aslida loy ekanligi kabi. Xuddi shunday, Atman ham Brahman bilan bir butundir. Advaita Vedanta falsafasida (Shankara tomonidan rivojlantirilgan) “Tat Tvam Asi” dualistiklikning yo'qligini ta'kidlaydi: Atman va Brahman o'rtasida hech qanday farq yo'q. Dunyoning moddiy ko'rinishi (maya) faqat illuziya bo'lib, haqiqiy bilim (jnana) orqali bu birlik idrok qilinadi. Bu tamoyil insonning o'z ichki o'zligini kashf qilish orqali moksha (ruhiy ozodlik) ga erishish yo'lini ko'rsatadi.

Tagorning shaxsiy izlanishlarida Buddizm ham alohida o‘rin egallagan. U Buddaning “sabr”, “ichki sokinlik”, “insoniy rahm-shafqat” g‘oyalarini ijobiy qabul qilgan. Uning ta’limotida har qanday tashqi ibodatdan ko‘ra, ichki uyg‘onish va qalbni poklash ustuvor hisoblanadi [6:47]. Bu jihat, ayniqsa, Sādhana asarida ochiq ifodalangan bo‘lib, unda Tagor inson qalbini ilohiylikka yetaklovchi manba sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Tagor sufiylikka ham yaqin bo‘lgan: u Baul madaniyati – Bengal xalqi orasida keng tarqalgan ruhiy-falsafiy oqimni, uni qalbning ilohiy bilan muloqoti sifatida qadrlagan. Bu ta’sir Tagorning she’riy tilida, musiqiy ohanglarida va ruhiy tajriba tasvirlarida seziladi [7:86].

G‘arb falsafasi, ayniqsa nemis idealizmi va Amerika transandentalizmi ham Tagor tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. U Emersonning “Universal ruh” haqidagi g‘oyalarini o‘zining “Religion of Man” asarida qayta ishlab, “Ilohiy inson” kontseptsiyasi orqali ifoda etadi. Shuningdek, Kantning axloqiy imperativi va ichki ongga asoslangan ozodlik tushunchasi Tagor qarashlarida insonning axloqiy kamolotga intilishi bilan bog‘lanadi [8:272]. Kantning axloqiy nazariyasi kategoriyaviy imperativga asoslanadi, bu esa insonning harakatlarini universal qonunlarga mos kelishini talab qiladi. U insonning ozodligini ichki ongning avtonomiyasiga bog‘laydi, ya’ni inson o‘zining axloqiy qonunlarini o‘z-o‘zidan belgilashi kerak. Bu insonning ichki ongiga asoslangan erkinlikni anglatadi, bu esa axloqiy harakatlarning asosiy motivatori sifatida vazifa eshikligini ta’kidlaydi. Tagor axloqiy kamolotni insonning o‘z-o‘zini kashf qilishi, tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi va universal birlikni idrok qilishi sifatida ko‘radi. Uning nazariyasida axloqiy kamolot sevgi, ruhiy rivojlanish va barcha hayot bilan garmoniyada bo‘lish orqali erishiladi, bu esa insonning ilohiy mohiyatini topishini anglatadi. Kant va Tagor o‘rtasidagi bog‘liqlik ularning insonning ichki ong va axloqiy harakatlarning asosiy motivatoriga e’tibor qaratishida ko‘rinadi. Kant uchun axloqiy harakat vazifa eshikligi va universal qonunlarga rioya qilish bilan bog‘langan, Tagor esa axloqiy kamolotni ruhiy rivojlanish va universal birlik orqali ko‘radi. Bu ikkala yondashuv ham insonning ichki qobiliyatlariga e’tibor qaratadi, lekin ularning metodlari va maqsadlari farq qiladi, chunki Kantning nazariyasi qat’iy va qonuniyatlarga asoslangan, Tagorning esa ko‘proq ruhiy va poetik.

Tolstoy bilan yozishmalari va madaniy muloqotlarida esa Tagor ichki insonni o‘zgartirish orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasiga sodiq qolganini ko‘rish mumkin.

XULOSA. Sharq va G‘arb qarashlarining bunday sintezi Tagorga o‘z falsafasini universal darajaga olib chiqish imkonini berdi. Tagorning falsafiy tafakkuri Sharqning ruhiy chuqurligi va G‘arbning intellektual erkinligini birlashtiradi. U nafaqat hind falsafasining ezgu g‘oyalarini zamonaviy dunyoga olib chiqdi, balki G‘arbning individualizm va romantizm elementlarini Sharqning kollektiv va ilohiy qarashlari bilan uyg‘unlashtirdi. Uning “Vishva-Bharati” universiteti

bu sintezning amaliy ifodasi bo'lib, Sharq va G'arbning eng yaxshi an'alarini birlashtirishga xizmat qildi. Tagorning falsafiy ildizlari upanishadlar, buddizm va sufiy tasavvuf kabi Sharq an'analari bilan birga, romantizm, transsendentalizm va gumanizm kabi G'arb g'oyalarining sintezidir. Uning dunyoqarashi insoniyatni birlashtiruvchi universal ruhiy qadriyatlar va sevgi orqali tinchlikka erishishga qaratilgan edi. Bu sintez Tagorni nafaqat hind xalqining, balki butun dunyoning buyuk mutafakkiri sifatida ko'rsatadi. U o'zini faqat hindu faylasufi emas, balki insoniyat vakili sifatida ko'rdi. Uning fikricha, har bir inson o'z madaniy ildizlariga tayanishi, ammo uni insoniyat tamadduni bilan uyg'unlashtira olishi lozim. Tagorning bu qarashlari zamonaviy globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va universal ma'naviyat g'oyalari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bu sababli ham uning falsafiy merosi faqat Hindistonda emas, balki butun dunyoda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gosteva E.I. *Filosofiya edinstva*. Rabindranat Tagor. – Moskva: Nauka, 1985. – S. 45.
2. Tagore R. *My Reminiscences*. – London: Macmillan, 1917. – P. 22.
3. Chakrabarti M. *Philosophy of Education of Rabindranath Tagore*. – New Delhi: Atlantic, 1988. – P. 18–21.
4. Radhakrishnan S. *The Philosophy of Rabindranath Tagore*. – London: Macmillan, 1919. – P. 55–57.
5. Сыркин А.Я. *Упанишады*. – М.: Ладомир, 1992. – С. 112.
6. Tagore R. *Sadhana: The Realisation of Life*. – London: Macmillan, 1979. – P. 47–49.
7. Komilov N. *Tasavvuf yoki Komil Inson axloqi*. – T.: Yozuvchi, 1996. – B. 86.
8. Emerson R. *The Over-Soul // Essays*. – Boston: James Munroe and Company, 1841. – P. 272–275.